

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13924081>

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING AXLOQIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHDA ABDULLA AVLONIYNING PEDAGOGIK IJODIDAN FOYDALANISH

Yo‘ldosheva Nilufar

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti 202-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: **M.A. Hamrayev**

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

E-mail: m.a.hamrayev@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola buyuk ma‘rifatparvar davlat arbobi Abdulla Avloniyning yuksak tarbiyaviy asarlarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilari axloqiy fazilatlarini shakllantirishdagi o‘rni. Adibning boy pedagogik merosi ta‘lim-tarbiya masalalarini rivojlantirish, uni o‘quvchilar qalbida shakllantirishda axloqiy va ma‘naviy barkamol tarbiyalashda milliy maktab va qimmatbaho manba bo‘lib xizmat qilganini o‘rganib chiqish davr talabiga aylanmoqda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarimizning axloqiy sifatlarini, xususiyatlari va dunyoqarashini shakllantirishda Abdulla Avloniyning pedagogik faoliyatidan, ijodidan hamda qarashlaridan foydalanish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich sinf, pedagogika, ta‘lim, axloq, madaniyat, jadid, ma‘naviy tarbiya, ma‘rifat, madaniyat, darslik.

Аннотация: В данной статье речь идет о роли великих просветительских произведений великого государственного деятеля Абдуллы Авлони в формировании нравственных качеств учащихся младших классов. Требованием современности становится изучение того факта, что богатое педагогическое наследие писателя послужило национальной школой и ценным ресурсом в разработке образовательных вопросов, в формировании нравственного и духовного воспитания в сердцах учащихся. Обсуждалось использование педагогической деятельности, творчества и взглядов Абдуллы Авлони в формировании нравственных качеств, характеристик и мировоззрения.

Ключевые слова: Начальный класс, педагогика, образование, нравственность, культура, современность, духовное образование, просвещение, культура, учебник.

Abstract: *This article is about the role of the great educational works of the great enlightened statesman Abdulla Avloni in the formation of moral qualities of elementary school students. It is becoming a demand of our time to study the fact that the rich pedagogical heritage of the writer served as a national school and a valuable resource in the development of educational issues, in the formation of moral and spiritual education in the hearts of students. the use of pedagogical activity, creativity and views of Abdulla Avloni in the formation of moral qualities, characteristics and worldview was discussed.*

Key words: *Primary class, pedagogy, education, ethics, culture, modernity, spiritual education, enlightenment, culture, textbook.*

Fikr tarbiyasi eng kerakli ko'p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan muallimlarning diqqatiga suyalgan muqaddas bir vazifadur.

(Abdulla Avloniy).

Hayot olamida, shubhasiz, tarbiya singari insoniyatga ta'sirli narsa yo'qdir. Shu sababdan qadimdan mashhur donishmandlar tarbiya to'g'risida qimmatli fikrlarni yozib qoldirganlar. Yoshlar tarbiyasi, ularni ilmi va har tomonlama etuk qilib voyaga etkazish barcha zamonlarda muhim vazifa hisoblangan. Mutafakkirlarimiz tomonidan yozib qoldirilgan bunday nodir asarlar o'sib kelayotgan yosh avlodni salbiy illatlardan asrab, axloqan pok, haqiqiy inson bo'lib etishishlariga undagan. Ajdodlarimiz asrlar davomida sevib mutolaa qilgan "Pandnoma", "Siyosatnoma", "Qobusnoma", "Axloqi muhsiniy", "Axloqi jaloliy", "Axloqi nosiriy", "Qonuni hikmat", "Nigoriston", "Bahr al-ulum", "Kachko'li sultoniy", "Jovidoni xirad", "Bistu se hikmat", "Hikoyoti dilpisand", "Odob as-solihin", "Turkiy "Guliston" yoxud axloq" singari asarlar shular jumlasidandir. Ushbu nodir asarlarda avval axloq-tarbiyaga oid biror so'z va tushunchani izohlab, keyin unga o'quvchi amal qilish uchun naqliy va axloqiy dalillar keltiradi. Umuman ularning mazmun-mundarijasi, ularda ilgari surilgan ilg'or g'oyalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Har bir millatning o'z ma'naviy qiyofasi mavjud. Bugungi kunda har tomonlama taraqqiy topib borayotgan jamiyatimizda ma'naviyatni yuksaltirish yuksak vazifalardan biridir. Ma'naviyatimizni yanada rivojlantirishda esa millatimiz tarixini,

ma'naviy qiyofasini o'zida badiiy aks ettirgan tarixiy badiiy hamda ilmiy asarlarning ahamiyati va o'rni beqiyosdir. Abdulla Avloniyning maktab uchun yaratgan to'rt qismdan iborat „Adabiyot yoxud milliy she'rlar” hamda „Birinchi muallim”, „Turkiy guliston yoxud axloq”, „Ikkinchi muallim”, „Maktab gulistoni” kabi darsliklari ham xarakterli bo'lib hisoblanadi. Bu asarlardagi mukammal fikrlarning g'oyaviy to'liqligi, ta'lim-tarbiya tizimiga va tushunchalariga doir fikrlarning ilmiy-nazariy asoslanganligi yuqoridagi fikrlarimiz dalilidir. boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida kitobxonlik yoki she'riyat kechalarini targ'ib etishda ham Avloniyning asarlari qo'l keladi. Ma'lumki, o'quvchilar nutqini rivojlantirish maqsadida o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatish ona tili o'qish savodxonligi darslarining asosiy vazifasi, ta'limiy vosita vazifasini bajaruvchi ma'lum bir asar voqealari ifodali o'qish orqali o'quvchi ko'z o'ngida gavdalantirilgan. Abdulla Avloniy o'quvchining savodini chiqarishga qanchalik e'tibor qaratgan bo'lsa, asarlarni tushunib, ifoda bilan o'qishiga, badiiy asarni his qilishiga shunchalik ko'p diqqatini qaratgan. Dars jarayonida o'quvchilarning xor bo'lib o'qishlarini ta'minlagan, mashqlar o'tkazgan. Avloniyning o'zi dars jarayonida dirijyor sifatida namoyon bo'lgan. Chunki Avloniy dirijyorlik san'atidan ham xabardor edi. Ifodali o'qishning turli shakllari mavjud bo'lib, ulardan biri deklamatsiya qilib o'qishdir. Abdulla Avloniy chin ma'noda muallim milliy maktab tizimini va yaratgan asarlarining millatimizga ravnaqi uchun o'z hizmati ko'rsatyapti.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish bandida ham xalqimizning ma'naviyatini yaxshilash haqida so'z borgan. Xalqimizning dunyoqarashini yillar davomida ma'naviyatni yaxshilashda buyuk pedagog olimlarimizning asarlaridan va pedagogik qarashlaridan foydalanish juda ahamiyatli hisoblanadi. Bizdan oldingi asrda yashagan insonlarning ma'naviyatini jadid olim va pedagoglarimiz tomonidan shakllantirilib borilgan. Ushbu pedagog olimlarning fikrlari hozirgi kun yoshlarining ma'naviyati uchun juda muhim. Jadid maktablari taraqqiyotining yangi davri – bunday maktablar uchun zamon talablariga to'la javob bera oladigan pedagoglar guruhini tarbiyalab yetishtirish, ilg'or pedagogik

texnologiyalarni o'zida mujassamlashtirgan darsliklar, o'quv qo'llanmalari yaratish, yangi texnik vositalar, ko'rgazmali qurollar ishlab chiqish XX arsning 10-yillaridan ko'zga tashlana boshladi. Buning uchun endi ushbu maktablarning nazariy asoslarini yaratish, yangi zamonaviy o'qitish usullarini ishlab chiqish va ulardan yosh avlod o'qituvchilarini bahramand qilish kerak edi. Mana shunday buyuk vazifani ado etish zamonasining ulug' mutafakkirlari Abdulla Avloniy hamda Abdurauf Fitratlar zimmasiga tushdi.

Abdulla Avloniyning pedagogika sohasidagi fikrlari: Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir.

Hayot yo'lida birinchi masala - maktab masalasidir.

Ushbu so'zlarida insonni kamol topishiga savod chiqarishiga yordam beradigan eng muhim narsa maktab ekanini, ta'kidlab o'tgan.

Jahonda bo'lmasa muallim agar,

Hayot ham bo'lmasdi go'zal bu qadar.

Avloniy ijodiy merosi ma'naviy-ma'rifiy tarbiya g'oyasining targ'ibotchisidir. Uning asarlarida ilgari surilgan ta'lim-tarbiyaga oid fikrlar milliy ma'naviyatimiz rivojlanishida qimmatli bir manba bo'lib xizmat qiladi. Avloniy bola tarbiyasini uning odob axloqi haqida fikrni ilgari surdi. Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda 4 bo'limga ajratadi:

- ✓ Tarbiyaning zamoni.
- ✓ Badan tarbiyasi.
- ✓ Fikr tarbiyasi.
- ✓ Axloq tarbiyasi hamda uning ahamiyati xususida fikr yuritadi.

„Tarbiyaning zamoni” bo'limida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini bu ishga hammani: ota-ona, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta'kidlaydi. Albatta xalqimiz orasida „Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” degan naql yuradi. Tarbiya xususiy ish emas, milliy ijtimoiy ishdir. Boshlang'ich sinflarda tarbiya darsi orqali vatanga sadoqat hissini, irodalilik, mafkuraviy immunitet, shuningdek ularning shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy, ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishi hamda

mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish va oshirish shu bilan birga ma'naviy tarbiyani amalga oshirishda o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni kamol topishida ota-ona, tarbiyachi, o'qituvchi muhim ahamiyat kasb etadi. Bolaning mediamadaniyatini oshirishda tarbiyaning o'rni beqiyos albatta. Boshlang'ich 1-2- sinflar o'quvchilari uchun Vatan ona kabi tushunchasini tushuntirish bir muncha onson bo'lishi uchun uni o'ziga bo'lgan munosabatni, birinchi do'stlari, u boradigan bolalar bog'chasiga munosabati, ona va vatan kabi so'zlar chambarchas bog'likligi vatanni qanday bo'lmasin sevishni unga sodiq farzand bo'lishni birgina ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy aytgan so'zlaridan xulosa qilib tushuntirishimiz mumkin.

Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o'zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog'langanligi adibning boy pedagogik merosi ta'lim-tarbiya masalalarini rivojlantirish, uni o'quvchilar qalbida shakllantirish-da axloqiy va ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalashda milliy maktab va qimmatbaho manba bo'lib xizmat qilganini o'rganib chiqish davr talabiga aylanmoqda. Abdulla Avloniyning maktab uchun yaratgan asarlari va ularda axloq-odob tushunchalarining yoritilishi tarbiya masalasining ifodasi nafaqat badiiy, balki noyob tarixiy-pedagogik, ta'limiy va qomusiy yodgorlik hisoblanadi. Avloniy asarlari bilan yaqindan tanishar ekanmiz, yana bir bor shunga iqror bo'lamizki, uning asarlarida ifoda etilgan ta'limiy, tarbiyaviy g'oyaviy, falsafiy pedagogik hikmatlar o'zining hayotiy mazmuni bilan bizni bugun ham hayratda qoldiradi. Avloniy asarlarining tub ma'no-mohiyatini belgilab beradigan insonparvarlik, mehnatsevarlik, vatan- parvarlik g'oyalari va axloq-odob tamoyilida hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo'lgan saboqlar borligini alohida ta'kidlab o'tmoq joiz.

Xulosa qilib aytganda, Avloniy ijodiy merosi ma'naviy-ma'rifiy tarbiya g'oyasining targ'ibotchisidir. Uning asarlarida ilgari surilgan ta'lim-tarbiyaga oid fikrlar milliy ma'naviyatimiz rivojlanishida qimmatli bir manba bo'lib xizmat qiladi.

Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari yuqori sifatli ta'lim tizimini yaratishda katta muhimlikka ega bo'lib, o'quvchilarning o'rganish joylarida eng yaxshi imkoniyatlarni yaratishda yordam beradi. Uning prinsiplari o'quvchilarning shaxsiy va ma'naviy rivojlanishiga yordam beradi, ularning o'zining bahosini bilishini, insoniy xususiyatlarni tushuntirishni, o'rgangan bilimlarni amalda qo'llashga qaratilgan muvaffaqiyatli pedagogik usullardan foydalanishni o'zichiga oladi. Qo'shimcha ravishda, Avloniyning pedagogik qarashlari o'quvchilarning psixologiya, ijtimoiy fanlar va inson madaniyatining muhim masalalariga e'tibor beradi. Bugungi kunda, Avloniyning pedagogik qarashlari o'quv jarayoniga yordam beradi va talabalarning yaxshi rivojlanishini ta'minlaydi. Bu ulug' adib ijodi, amaliy faoliyati bugungi kun yoshlarimiz uchun ibrat maktabi, desak adashmaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shavkat Mirziyoyev. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. "Xalq so'zi", 2017- yil 4-avgust
2. Shavkat Mirziyoyev. O'qituvchi va murabbiylar – yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir. O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrigi," Xalq so'zi", 2020-yil 1-oktyabr. № 207. (7709) 3-bet
3. Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2 жилдлик. 2-жилд. Тошкент "Маънавият" 2006.
4. Mamasoli Jumaboyev . O'zbek va chet el bolalar adabiyoti. Toshkent "O'ZBEKISTON" – 2003
5. N. Abdulahatov, O. Abubakirova "Aliomalar to'g'risidagi asotirlar" Farg'ona 2012 y.
6. H.T. Omonovva boshqalar "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" Darslik Toshkent - 2007.
7. M. Axmedjonov, B. Xo'jayev, Z. Hasanova. "Pedagogik mahorat". -Buxoro, 2008.
8. O. Suvonov, S. Astanova. "Pedagogik mahorat". -Guliston, 2016
9. Abdulla Avloniy.. Turkiy guliston yoxud axloq - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. - 96 bet.